

“ALISHER NAVOIY ASARLARINING IZOHLI LUG‘ATI”DA SHAXS MA’NAVIY SIFATLARINI IFODA ETUVCHI ATOV BIRLIKLARNING BERILISHI

Pardayeva Adiba Abduraxmonovna

Qarshi DU Filologiya fakulteti

Lingvistika: o‘zbek tili 2- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Yurtimizda bunyod etilayotgan insonparvar, demokratik jamiyat qurilishini jadallashtirishning eng muhim sharti, uning ma’naviy-axloqiy zaminlarini mustahkam qo‘rg‘onga aylantirishdir. Milliy ma’naviyatning jamiyat hayoti va rivojidagi o‘rni qanchalik kuchli bo‘lsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uzviyligi yuzaga keladi hamda ijtimoiy taraqqiyotning qudratli omiliga aylanadi.

Shaxsning ma’naviy kuch-qudrati jamiyatning ulkan salohiyatiga zamin yaratadi. Shaxs ma’naviyatini shakllantirish, jamiyat milliy-ma’naviy muhitini boyitishda Alisher Navoiy shaxsiyati va asarlarining ahamiyati beqiyosdir. Ushbu maqolada “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning berilishi tadqiqqa tortildi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, leksikografiya, Alisher Navoiy asarlari tili, “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”, ma’naviyat ifodalovchi atov birliklar.

Alisher Navoiy davridan hozirga qadar besh yuzi sakson bir yil vaqt o‘tdi. So‘z mulki sultonni qo‘llagan so‘zlarning bir qismi iste’moldan chiqdi yoki Navoiy tilida ishlatilgan ba’zi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida butunlay boshqa ma’noda qo‘llanilmoqda. Navoiy asarlari tilini tushunish uchun esa Navoiy asarlarining lug‘ati zarur bo‘ladi. Mana shunday zaruriyat sabab Navoiy asarlari bo‘yicha lug‘atlar tuzish shoir hayotligi chog‘laridayoq Husayn Boyqaroning farmoniga muvofiq boshlangan.

XX asrning 80-yillarida 4 jiddlik “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” nashrdan chiqdi. Shundan so‘ng shoir asarlariga 20dan ortiq lug‘atlar tuzilgan. Ammo shoir ijodini to‘liq qamrab oladigan lug‘at tuzishga ehtiyoj hali to‘liq ta’minlanmagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida besh jiddlik “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atini nashr etish ” vazifasi belgilangan. Mazkur qaror ijrosini ta’minalash maqsadida O‘zR FA O‘zbek tili adabiyoti va folklori institutida Berdak Yusuf boshchiligidagi O‘zbek tili tarixi va dialektologiya bo‘limi a’zolari “Navoiy tili lug‘ati” ustida izlanishlar olib borib,

hozirda 5 jiddli lug‘atning 1-jildi nashr etilgan. Lug‘atda shoir ishlatgan barcha so‘zlar izohi bilan berilishi maqsad qilingan. Ushbu maqolamiz orqali ushbu dolzarb vazifaga “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarni berilishini tahlilga tortish bilan biz ham o‘z hissamizni qo‘shmoqchimiz.

“Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi quyidagi atov birliklar o‘z ifodasini topgan:

Asarliq/ /Asarlig‘-ta’sirchan, jozibador

Afzunlig‘//Afsunlug‘-ko‘plik, ortiqlik, ziyodalik

Bahodirlilik//Bahodirluq//Bahodirlug‘-qahramonlik, jasurlik, qo‘rqmaslik, pahlovonlik

Ahror-oliyanob va himmatlilar

Abror- yaxshi axloqu odoblilar, ezungular, xayr sohiblari, sofodillar

Adl-1. Adolat, odillik, haqlik, to‘g‘rilik, haqqoniylilik:

Haqni botildan biorovkim qildi farq,

Adli birla ravshan etti g‘arbu sharq. Lison ut-tayr, 5-6;

2.insof:

Navoiy, ulcha kerak aylading ne qilg‘aysen,

Ishingni adl bila so‘rsa, yor agar nogoh.

Xazoyinul-maoniy, 116-557;

Azizliq-izzatlilik, obro‘-e’tiborlilik; ulug‘lik, ustunlik

Haqdin azizliq tilasang, eldin uz ta’mal

Kim xalqning azzi dedi azza man qana.

Xazoyinul-maoniy, 111b-292

Azim -1. katta, ulkan, buyuk:

Mavlono Muin Voiz.... holo o‘zi dag‘i azim voizdir va muridlari ko‘p. Majolisun-nafois, 144;

2. muhim;

...yana biri lutf va tovozu va adab va yumshoq so‘z kim, bu barchadin azimroqdur.

Holoti Sayyid Hasan Ardasher, 527;

3. og‘ir, qiyin;

4. juda ko‘p, benihoya, hisobsiz;

5. boy, martabali;

Akbar – ulug‘, katta, eng katta:

Lek jihad ichra bu asg‘ardirur,

Nafs bila aylagil akbardirur. Hayrat ul-abror, 67-24.

Axiy- 1. Oliy saxovat egasi, eng saxiy kishi:

Birta o‘tmakni ikki bo‘lib, yarmin bir ochg‘a berganni saxiy de,

O‘zi olmay barini muhtojqa berganni axiy de. Mahbub ul-qulub, 112;

Ahbobliq-yoru do‘stlarga ega; yoru birodarlik:

Olamda hargiz do‘stliq kishi dushman siz bo‘lmaydur va ahbobliq odami a’dosiz topilmaydur. Munshaot, 101.

Akmal- eng komil, eng yetuk, barkamol, afzal:

Gar valikim xalqdin akmaldur ul,

Var nabi qil farzkin mursaldur ul. Lison ut-tayr, 176-5

Damsozliq-ulfatlik, hamdardlik, sirdoshlik:

Hizni o‘lsa aylagan damsozliq,

Ayshida qilg‘on ayon hamrozliq. Lison ut-tayr, 22-10

Ibo-andishalik, ko‘ngilni bo‘lmaslik, tortinish:

Magar uch kishi kim xato qildilar,

Azimat qilurdin ibo qildilar. Saddi Iskandariy, 26862

Idroklik – tezfahmlik, aqli rasolik:

Kichik Mirzo...xo‘b ta‘blik, tez idroklik...yigit edi.

Majolisun-nafois, 202.

Insoniy – kamolotli, yetukli:

Oni bashar xaylining insoni bil,

Odamiylar odamiysin oni bil. Hayrat ul-abror, 142-5

Maorifpanoh- ilm-ma’rifat homiysi:

Insonliq – insonlik, odamiylik:

Agar yo‘q odamiyliq menda yorimda, tong ermas,

Ki majnunda kishilik yo parida bo‘lmas insonliq.

Xazoyinul- maoniy, 116-320

Insofliq‘- sofkillik, to‘g‘rilik:

Hokimi insofliq‘ dono dile,

Xush oyin shahriyori odile. Lison ut-tayr, 20-14

Iste’dod- 1. Qobiliyat, aqlililik, talant:

Piru iste’dodu tavfiq o‘lmasa bo‘lmas bu ish,

Kimdururkim, bag‘ri bu hasratdin oning qon emas.

Xazoiyinul- maoniy, 16-722

Ishqbozliq – oshiqlik, ishqqa berilganlik:

Kishi yigitlar ila ishqibozliq qilsa,

Yigitligida erur xo‘bu munda ermas shak.

Xazoyinul-maoniy, IVb-738

Yo‘ldoshlig‘-do‘stlik, hamrohlik:

Ul jamoat ham qilib qo‘ldoshlig‘

Komu nokom ettilar yo‘ldoshlig‘. Lison ut-tayr, 87

Kamolot – 1. Mukammalliklar; fazilatlar; barkamollik:
Aning kamoloti ovozasin eshitib...

Xamsatul ul-mutahayyirin, 699

2.oliy daraja:

Har kimda ki bor esa xayoli

Kasb etmak ishq aro kamoli Layli va Majnun, 96619;

Do'stdorliq-do'stsevarlik, mehr-muhabbat:

Har kimda xotun yo'q-g'amgusorliq yo'q, har kimda farzand yo'q do'stdorliq yo'q...

Tarixi muluki ajam, 521

Jonafro'z-jonga rohat beruvchi, yashnatuvchi:

Suyi kavsar suyidek jonafrō'z,

O'ti do'zax yolinidek purso'z.

Jonnavoz-ko'ngilni o'ziga tortadigan, xursand qiladigan so'z:

Takallum qilib shah base jonnavoz,

Demay jonnavoz, ayt mehmonnovoz.

Saddi Iskandariy, 282b11

Juvonmard-olijanob; saxiy, ochiq qo'lli:

Xuroson mashoyixinining juvonmardlaridandur.

Nasoyimul-muhabbat, xv-93

Zabonliq-muomalali:

...va mutavasnitol-hollarg'a ishi muloyamat va xo'b zabonliq.

Holoti Pahlovon Muhammad, 534.

Ro'po'shlig- yuzi yopiqliq, sharm-hayolik:

Ismat bahoristonining shukufta bog'i va iffat shabistonining gavhari
shabcharog'i, ro'po'shlig' Qofining asmoi parisi

Sabbai sayyor (Xamsa), 928.

Ravshanroy-fikri porloq; mutafakkir; dono:

Shohi G'oziy erur karam tengizi,

Poku sofiy zamiru ravshanroy.

Xazoyinul-maoni, IIIb-698;

Ravshanravish- go'zal axloqli, sharafiga g'ubor tekkizmagan:

Garmro' Ravshan ravish el ko'nglidin fayz istagil,

Kim yorutur dahrni xurshidi anvar ko'nglidek.

Xazoyinul-maoni, IIa-

Pokravlaqtin brasululloh qizi.

Xazoyinul-maoniy, IIa-

412;

Parhezkor – saqlanuvchi; pokdomon, porso:

Darvesh Mansur... Darvesh va parhezkor va mumtoz kishi erdi.

Majolisun nafois, 42

Sabrpayvandliq- chidamlilik, sabr-toqatlilik:

Tutub borchha oyini xursandliq,

Qazo hukmig‘a sabrpayvandliq.

Saddi Iskandariy (Xamsa), 1623.

Sohibtamkin – og‘ir tabiyatli, vazmin:

... sohibtamkin ichkilar va xususiyat oyin gulchehralar va soyir eshik, borchha Pahlovong‘a yor va havodor erdilar.

Holoti Pahlovon Muhammad, XIV-101.

Taaqqulluq- fahmli, idrokli:

Shoh G‘arib Mirzo...nozuk tahayyulluq va daqiq taaqqulluqluq yigitdur.

Xayrandish- andishali, yaxshi fikrli:

Ko‘nglim andishasi vaslingdirur, ummed bukim,

Haq murodig‘a teguray, chu erur xayrandish.

Xazoyinul –maoniy, IVb-251.

Xo‘bzabonliq- shirinso‘zlik:

Xo‘bzabonliq va fuqaro va masoking‘a varzishimuvofaqat va naf'rasonlig‘.

Holoti Pahlovon Muhammad, XIV-95.

Yakjihatlik-birlik, ajralmaslik, ittifoqlik:

Quchti istab rahravi farzonani,

Yakjihatlig‘ bobida mardonani. Lison ut-tayr, 89-18

Qobiliyatlig‘- iste’dodli, talantli:

Mavlono Qavsiy xeli qobiliyatlig‘ yigitdur.

Majolisun-nafois, 106

Qo‘ldoshlik- do‘stli, o‘rtoqlik:

Ul jamoat ham qilub qo‘ldoshliq,

Komu nokom ettilar yo‘ldoshliq. Lison ut-tayr, XI-96

Hazmozmoy- matonatli mard:

Sipohin tuzub shohi razmozmoy,

Suron soldiyu tushti hazmozmoy.

Hamdam, hamdamiq, hamdardliq- do‘stlik, o‘rtoqliq; jonkuyar do‘st, dardlashuvchi; hamdardlik.

Haminonliq-birgalik, yo‘ldoshlik.

Ayla birga bo‘lmoq, birga bormoq,

Ham qo‘narda posbonliq aylagin. Lison ut-tayr, 29-3

Haqshunoslig‘- haqiqatni sevuvchilik:

Boyqaro Mirzo...haqshunoslig‘i a’lo martabada erdi.

Majolisun –nafois, 202.

Hikmatgard- donishmand, ilm-u hikmat sohibi:

Bo‘lub Yunonda hikmartgardi aning,

Arastu bir kichik shogirdi aning. Farhod va Shirin, 35

Hikmatpanoh- bilimdonlar suyanchig‘i, homiysi:

Ki olamni olg‘anda Jamshedshoh,

Kim ul xisrave erdi hikmatpanoh.

Saddi Iskandariy (Xamsa),1397

Hilm-yumshoqlik, muloyimlik.

Viqgor gavhariyu hilm ma’dani bo‘lakur,

Desangki, qilg‘ay itoat sango gado ila shoh.

Xazoyinul- maoniy, Ib-728

Himmatvar –tirishqoq, zo‘r irodali,mard, saxiy:

Ki borsen hiradmandu ravshan ravon,

Juvonmardu himmatvaru pahlavon.

Saddi Iskandariy (Xamsa),1472

Juvonmard-olijanob; saxiy, ochiq qo‘lli:

Xuroson mashoyixinining juvonmardlaridindur.

Nasoyimul-muhabbat, xv-93

Har qanday leksik birlik keng ma’noviy qurshovga ega bo‘lganligi sababli so‘zlarning umumiy lisoniy mohiyatini talqin qiluvchi lingvistik izohli lug‘atlar so‘zning barcha qirralarini oladi hamda ularning har birini turli nutqiy qurshovlarda namoyon bo‘luvchi ko‘rinishlari sifatida talqin qiladi.

Alisher Navoiy asarlarida aks etgan shaxs ma’naviy sifatlarini ifodolovchi atov birliklarini o‘rganish, mana shunday go‘zal fazilatlar-u xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga doim amal qilib yashash-komil insonning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezonlar sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida"gi Qarori // Hovosti Uzbekistana – Uz Report. News. Google. www.uz.
2. Mirziyoyev Sh. M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.